

QONUNIY AJRAMASDAN UYLANSA QANDAY JAVOBGARLIK BOR?

*Ergashev Nuriddin,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetining
1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi nikohdan o'tish tartibi, nikohning qanday asosda tuzilishi, nikohning qanday holatlarda haqiqiy emas deb topilishi haqida ma'lumotlar keltirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qonuniy nikohda bo'lgan fuqarolarning qay tartibda FHDYO organlarida ajrashishi haqidagi to'liq ma'lumotlar sanab o'tilgan. Nikohda bo'lib turgan fuqarolarning qonuniy ajramasdan turib, yana nikohdan o'tsa, unga beriladigan javobgarlik choralar haqida, shu bilan birga, Ozbekiston Respublikasidagi nikoh munosabatlariga oid ba'zi bir statistikalar va yurtboshimizning qo'shxotinlikni tanqid ostiga olganlariklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: FHDYO (fuqarolik holatini qayd etish organi), Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, qo'shxotinlilik, qonuniy va noqonuniy ajrim, nikoh, Jinoyat kodeksi, Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi.

Nikoh o'zi nima ?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq, Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqliligidagi asoslanadi. Nikohlanuvchi har bir fuqaro xalqimizning an'anaviy oilaviy qadriyatlari asosida fuqarolik holatini qayd etish organlarida ariza berish orqali nikohdan o'tishlari mumkin. Shuningdek, nikoh ixtiyoriy rozilik va teng huquqlilik asosida tuziladi va bu bosh qomusimizning tegishli moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Ba'zi holatlarda nikoh haqiqiy emas deb topilishi ham mumkin, bunga misol qilib, diniy rasm-rusumlarga ko'ra tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topisshimiz mumkin. Ushbu qoida Oila kodeksining 13-moddasida belgilab qo'yilgan.

Qonuniy va noqonuniy ajrim

Qonuniy nikohdan ajratish jarayoni respublika sudlari qarorlari asosida amalga oshiriladi. Ajratish to'g'risidagi qaror er yoki xotinning doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyidagi FHDY (Fuqarolik holatini qayd etish organi) tomonidan qayd etiladi. FHDY organi sud qarori asosida er-xotinlardan birining arizasiga binoan nikohdan ajratish to'g'risidagi dalolatnama yozuvini qayd etadi va nikohdan ajratish to'g'risidagi guvohnoma beradi. Ajrim er yoki xotindan birining arizasi bilan ham bekor qilishi mumkin, lekin buning asosi tegishli moddalarida belgilab qo'yilgan.

Ba'zida er-xotin o'zaro rozilik bilan ajralganini e'lon qilishlari mumkin, lekin agar bu ajrimni qonuniy tarzda tasdiqlamasa, u noqonuniy hisoblanadi. Bu holatda, er-xotin o'rtasida kelishuv bo'lsa-da, bu ajrimning rasmiy hujjatlari yo'q. Bunday vaziyatda, har ikki tomon ham o'zaro munosabatlarni tugatish bo'yicha qaror qabul qilgan bo'lsa-da, bu qaror hech qanday sud yoki Fuqarolik holatini qayd etish organi tomonidan tasdiqlanmagan. Shuning uchun, nikoh hali ham qonuniy hisoblanadi va er-xotin o'rtasida huquqiy munosabatlar davom etadi. Bu esa, kelajakda turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, mol-mulkni taqsimlash, bolalar tarbiyasi va aliment to'lovi kabi masalalarda har ikkala tomon ham qonuniy huquqlarga ega bo'lmaydi. Ajrimni rasmiylashtirmaslik, shuningdek, yangi munosabatlar o'rnatishda ham qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki yangi hamkorga nikoh haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishi mumkin. Shu sababli, agar er-xotin bir-biridan ajralishga qaror qilsa, ularning buni qonuniy tarzda amalga oshirishlari muhimdir. Bu nafaqat ularning huquqlarini himoya qiladi, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklarni ham bartaraf etadi.

Qonuniy ajramasdan uylansa qanday javobgarlik bor

Ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiyo ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash O'zbekiston Respublikasida jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi,

-birinchidan, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima;

-ikkinchidan, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari;

-uchinchidan, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashashni targ'ib qilish, ushbu mazmundagi ma'lumotlarni qarashlarni, g'oyalarni yoki chaqiriqlarni tarqatish, shuningdek, bunday xatti-harakatlarni rag'batlantirish tegishli miqdorda jarima solishga yoki ma'lum muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi diniy rasm-rusumlarga ko'ra tuzilgan nikohlar soni va buning ortidan ko'p xotinlik ortayotgani bildirildi. Shu bilan birga, nikohsiz tug'ilgan bolalar soni ham oshgan. 2020-yil holatiga ko'ra nikohsiz tug'ilgan bolalar soni 16 564 taga yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2022-yilda 18 955 taga oshgan. Nikoh belgilangan tartibda FHDY organlarida qayd etilmagani otalikni belgilash, aliment tayinlash, meros masalalari bilan bog'liq bo'lgan turli xil muammolarni keltirib chiqaradi, natijada fuqarolar, ayniqsa, ayollar davlatning huquqiy siyosatiga nisbatan bo'lgan ishonchi yo'qolib bormoqda. Shu turdag'i tushunmovchiliklarni oldini olish uchun "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi qabul

qilindi. Yana shuni qo'shimcha qilish lozimki, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida qo'shxotinlik bilan bog'liq holatlarni tanqid ostiga olgan.

Xulosa:

O'zbekistonda qonuniy ajramasdan uylanish ko‘p xotinli bo‘lish sifatida jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Bu er-xotin huquqlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va ijtimoiy barqarorlikni buzishi mumkin. Nikohni qonuniy ravishda tasdiqlamaslik mol-mulk, bolalar tarbiyasi va aliment masalalarida muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu holatlar fuqarolar, ayniqsa, ayollar orasida huquqiy ishonchni pasaytiradi. Nikoh va ajrim jarayonlarini rasmiylashtirish muhimdir, chunki bu shaxsiy huquqlarni himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda yordam beradi. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan huquqiy yordam fuqarolarni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Har qanday holatda qonuniy ajramasdan turib, boshqa ayol bilan bilan er xotin munosabatlariga kirishib yashash javobgarlikni keltirib chiqaradi va bunga qarshi ba’zi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Bu qonun hujjatlarining asosiy maqsadi, jamiyatdagi ajralishlarni oldini olish, yosh er-xotinlarning o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilash va oiladagi muammolarni oldini olishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 13-modda, <https://lex.uz/mact/-104720>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 76-modda, <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 126-modda, <https://lex.uz/docs/-111453>